



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

Kirgizbayeva Muslima Buribayevna

Toshkent viloyati Nurafshon shahar

48-umumiy o'rta ta'lim maktabi

"Xalq ta'limi a'lochi" ko'krak

nishoni sohibasi, oliy toifali

boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari va hayotga tadbiiq eta oilshlarida ulardagi kreativ fikrlash motivatsiyalarining o'rni va ahamiyati haqida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Kreativlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, samaradorlik*

Har bir xalq, har bir millatning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan aytganda, mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida ta'lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, o'g'il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishlarini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidorini, intellek tual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Ta'lim jarayonini sifatli va samarali tashkil etilishi o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va malakani talab etadi. Har bir davlat ilm-fanning bir necha ustivor yo'nalishini rivojlantirish tarafdoridir.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globallashuv va axborotlashuv davrida ta'limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tadbiiq etmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta'limda birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish va kreativ fikrlash eng muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik inglizcha "create" – yaratish, "creative" – ijodkor kabi ma'nolarni anglatadi. Kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni, yangi g'oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o'zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan'anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo'lishi muhim



ahamiyatga ega bo'lib, bu jihati uning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda nuhim omil hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Har tomonlama fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimining bir nechta variantlarini izlaydi, so'ngra ularning orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi. O'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgub bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi.

O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

- Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni darsda "bir xillik"dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jalb etish va qiziqtirish

- O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur.

Hozirgi kunda muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning maqsadi ham o'quvchi va yoshlarning o'ziga xos kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga va ularning bo'sh vaqtini mazmunli, samarali tashkil etishga qaratilgan. Ozod va obod Vatanimizning ertangi kelajagi bugungi o'quvchi yoshlarning qo'lida ekan, buni biz o'qituvchi pedagoglar doimo yodda tutishimiz va o'z kasbimizga sidqidildan yondashishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika texnologiya va pedagogik mahorat: darslik / O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Moliya instituti.-T.; "Iqtisodiyot-moliya" 2009.-240b. Xo'jayev N.X, Madyarova S.A, Eshchonov E.U
2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A, Usmonboyeva M.H, Sayfurov D.M.- Toshkent,2015.-120b.
3. "Kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2016
4. "Pedagogik kompetentlik" uslubiy qo'llanma / Axmedova M.T . T.: BROK CLASS SERVIS, 2016. -84-b